

«TASDIQLAYMAN»

Toshkent shahar statistika
boshqarmasi boshlig'i

L.T.Mirsoatov

2024-yil

may



**Statistik registrlarni yuritish bo'limi
NIZOMI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Toshkent shahar statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo'limining (keyingi o'rinlarda bo'lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3165-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Toshkent shahar statistika boshqarmasi (keyingi o'rinlarda boshqarma deb ataladi) ning tarkibiy bo'linmasi xisoblanadi.

3. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Davlat statistikasi to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Maxkamasi qarorlari va farmoyishlariga, "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida"gi Nizomga, shuningdek boshqa qonun xujjatlariga amal qiladi.

4. Bo'lim statistik registrlarni yuritish masalalari bo'yicha faoliyatini Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar statistika bo'limlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, maxalliy davlat xokimiyati organlari va boshqa organlar bilan o'zaro xamkorlikda amalga oshiradi.

5. Bo'lim o'z faoliyatini boshqarma boshlig'i raxbarligida amalga oshiradi.

Bo'lim o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari raxbarligida amalga oshiradi.

2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Bo'limning asosiy vazifalari xisoblanadi:

a) *statistik registrlarni yuritishda yagona siyosatni ishlab chiqish va bajarish, statistikani tashkil qiliishning samarali tizimini ta'minlash va davlat statistikasi asosida muvofiqlashtirish va funksional tartibga solish asosida:*

Davlat statistika ishlari dasturi, Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, boshqarmaning ish rejalarini, bo'lim ish rejasini, Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha me'yoriy-huquqiy xujjatlar loyixalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi va ijrosini ta'minlashda ishtirok etish;

statistik ma'lumotlar foydalanuvchilari talabini o'rgangan xolda uzoq muddatli maqsadlar va yunalishlar bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni joriy etib borish;

Davlat statistika ishlari dasturining statistik registrlarni yuritish soxasiga oid qismi bo'yicha takliflar ishlab chiqish va taqdim etish;

statistik registrlarni yuritish soxasida davlat statistika prinsiplari va xalqaro standartlarga javob beradigan yagona statistika uslubiyotiga rioya etilishini ta'minlash;

ishlab chiqiladigan me'yoriy-huquqiy xujjatlar loyixalariga Bo'lim vakolati doirasidagi takliflar ishlab chiqishda ishtirok etish.

b)halqaro standartlarga muvofiq, bo'lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish soxasida:

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri xududiy ma'lumotlar bazasi (keyingi o'rinlarda KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi deb ataladi)dagi ma'lumotlarini mikroiktisodiy va tuman darajalarda o'rganilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning qamrovini kengaytirishga qaratilgan statistika ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlashning zamonaviy metodologiyasi va metodikalarini keng joriy etish jarayonida ishtirok etish;

iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini yuritishda ishtirok etish;

umumdavlat va ichki idoraviy statistik tasniflagichlar asosida yuridik shaxslarni identifikatsiyalashning yagona prinsiplarini ta'minlash;

davlat statistika soxasiga oid me'yoriy-huquqiy xujjatlarni ishlab chiqishda Bo'lim vakolati doirasida ishtirok etish;

foydalanuvchilarning statistik ma'lumotlarga bo'lgan talabiga muvofiq, statistika soxasi bo'yicha rivojlanayotgan xorijiy tajribani o'rganish umumlashtirish va tarqatish;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi soxasida xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlar reyting baxolarini tuzish uchun foydalaniladigan axborot manbalarini urganishni tashkil etish, ular asosida shakllantiriladigan va tarqatiladigan statistik ko'rsatkichlar tarkibini yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

jamiyat ehtiyojlariga muvofik KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi soxasidagi ilgor xorijiy tajribani o'rganadi umumlashtiradi va ommalashtiradi, xalkaro tavsiyalar asosida ko'rsatkichlarni xisoblash metodikalarini doimiy ravishda takomillashtirishni amalga oshirishda ishtirok etish.

v) ijtimoiy-iqtisodiy xodisalar, jarayonlar va ularning natijalari tug'risidagi statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish soxasida;

Davlat statistika ishlari dasturi, Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturining KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi soxasidagi oid qismini bajarilishini ta'minlash;

yuridik shaxslarni xisobga ko'yish va ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha ishlarga uslubiy raxbarlik qilish va ularni muvofiqlashtirish;

KTYaDR xududiy ma'lumotlari elektron bazasini yuritish va boshqarish;

KTYaDR xududiy ma'lumotlari bazasini rivojlantirishining metodologik asoslari va yo'nalishlarini ishlab chiqish, undagi ma'lumotlarni aktual darajada saqlash;

xududiy statistika organlarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida profilaktika ishlarini tashkil qilish, xisobot va ijro intizomini ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshirish, ma'muriy

amaliyotni qo'llash borasidagi faoliyati monitoringini yuritish;

umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga muvofik, statistik metama'lumotlar tizimini yaratish va rivojlantirish bo'yicha ishlarni muvofiklashtirish;

tavsiya etilgan xalqaro standartlar asosida statistikada sifatni boshqarish tizimini joriy etish va rivojlantirish;

Boshqarmaning tarkibiy bo'linmalari bilan birgalikda statistik registrlarni yuritish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi sohasiga oid statistik ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;

qonunchilikka muvofiq, Bo'lim ish faoliyatida shakllangan arxiv xujjatlarini jamlash, saqlash, xisobga olish va ulardan foydalanish ishlarini amalga oshirish;

Boshqarma bulinmalarini statistik kuzatuv ob'ektlari haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash.
g) belgilangan tartibda davlat organlari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va aholini xizmatlar statistikasiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash sohasida:

davlat organlari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va axolini belgilangan tartibda statistika axboroti bilan ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlari ijrosi yuzasidan Bo'lim vakolati doirasida yillik va choraklik statistik xamda taxlilii materiallarni tayyorlashda ishtirok etish;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi sohasi bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlarni davlat statistika organlari, boshqa davlat organlari, xalqaro tashkilotlar nashrlarida joylashtirish uchun va barcha foydalanuvchilarga statistik ma'lumotlardan foydalanish uchun teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlash;

xorijiy statistika organlari bilan KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi sohasi bo'yicha ochiq statistik axborotlarni almashish, respublikaning rivojlanishi tugrisida materiallarni xalqaro statistik to'plamlarda chop etish uchun axborotlarni tayyorlash;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi sohasida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi taxlilii ma'lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-revizlar tayyorlash;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi sohasiga oid statistik ma'lumotlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirok etish.

d) Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri va statistika ishlarini tashkil qilish uchun zarur iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalarni yuritish :

yagona tizim asosida yuridik shaxslarni davlat tomonidan xisobga olish va identifikatsiyalashni, korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri xududiy ma'lumotlar bazasining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash xamda rivojlantirishni ta'minlash;

statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bulgan iqtisodiy-statistik klassifikatorlarni ishlab chiqarishda xamda yuritishda, xalqaro standart klassifikatorlar asosida ularning muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishda ishtirok etish;

o'zaro mos axborot tizimlarini va resurslarini yaratish uchun asos sifatida statistik klassifikatorlardan foydalanishni ta'minlash;

internet-resurslarga joylashtirish yuli bilan statistik klassifikatorlar va ularga kiritilayotgan

o'zgartirishlar to'g'risida axborotlarni foydalanuvchilarga taqdim etib borish.

7. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Davlat statistika ishlari dasturi, Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, boshqarmaning ish rejalarini, boshqarma ish rejasini, Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha me'yoriy-huquqiy xujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi va ijrosini ta'minlaydi;

Davlat statistikasini tashkil etish soxasida qonun xujjatlarini yanada takomillashtiri va xujjat loyihalarini belgilangan tartibda O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Maxkamasi va tegishli organlarga kiritish bo'yicha takliflarni tayyorlashda ishtirok etadi;

Bo'limning ish usullarini yanada takomillashtirish, fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida qo'rib chiqish va munosabat bildirish, xodimlarning yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun mas'uliyatlarini oshiradi;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasini aktuallashtirish va tasarruf etish, KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasidagi korxonalar va tashkilotlar ma'lumotlarini kiritishda yuzaga kelgan xatolarni bartaraf etish bo'yicha kursatmalar tayyorlaydi;

korxonalar va tashkilotlar xaqida belgilangan tartibda to'liq va aniq ma'lumotlar bilan davlat va xujalik boshqaruv organlari xamda boshqa foydalanuvchilarni ta'minlaydi;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasining arxiv nusxalarini saqlashni amalga oshiradi;

davlat ruyxatidan o'tkazuvchi organlar, solik organlari va boshqa organlar bilan o'zaro xamkorlik qiladi;

ro'yxatdan o'tgazuvchi organlardan kelib tushadigan KTYaDR xududiy ma'lumotlari bilan ishlashni amalga oshiradi;

KTUT kodlarini biriktirilishi va uni takrorlanishini nazorat kiladi;

Davlat va xo'jalik boshkaruv organlari tarkibiga kiruvchi tuzilmalar bo'yicha solishtirish ishlarini amalga oshiradi;

KTYaDR foydalanuvchilariga axborot-ma'lumotnoma xizmatini ko'rsatadi; jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan, elektron shakldagi murojaatlarning tegishli qismini ko'rib chiqadi va ulardagi masalalarni xal qilish bo'yicha, zarur xollarda jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida, takliflar tayyorlaydi;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasidagi klassifikatsiyalashtirish ko'rsatkichlarini davlat statistika kuzatuvlarini o'tkazish jarayonida olingan dastlabki statistika ma'lumotlari asosida o'z vaqtida o'zgartirishni amalga oshiradi;

statistika maqsadlari uchun zarur bo'lgan statistik klassifikatorlar va nomenklaturalar tizimini yuritadi va ularga o'zgartirishlar kiritadi, xalkaro standart klassifikatorlar asosida ularning muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishini amalga oshiradi;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasining axborot resursiga statistik tasniflagichlarni joriy etish va ulardan foydalanish borasida KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasini yuritish metodologiyasini takomillashtirishni amalga oshiradi;

statistik registr soxasiga oid maxfiy statistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va ximoyalashning tegishli tartibini ta'minlaydi; tuman statistika organlariga uslubiy xamda amaliy yordam ko'rsatadi;

Bo'lim tomonidan ishlab chiqiladigan statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligi, xolisligi,

tezkorligi, kompleksligi va tizimlilikini ta'minlaydi;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar, bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni tulik, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini O'zbekiston Respublikasi Prezident va Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilangan iqtisodiyotning eng muxim ustivor yo'nalishlarini, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini, iqtisodiy isloxlarni yanada chuqurlashtirish, tarkibiy o'zgartirish

va diversifikatsiya qilish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlarda belgilangan vazifalarni xamda mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning tendensiyasini (xolatini) xisobga olgan xolda ta'minlaydi;

Bo'lim o'ziga yuklangan boshqa funksiyalarni belgilangan tartibda amalga oshiradi. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Boshqarma bo'linmalari va tuman statistika organlaridan o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi soxasidagi ishlarni tashkil etish samaradorligini oshirish soxasida boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasining tuzilishi va dasturiy ta'minotiga o'zgartirishlar kiritish;

davlat statistikasi soxasida normativ-huquqiy bazani yanada rivojlantirish va takomillashtirish, KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi metodologiyasi va metodikasini ishlab chiqish bo'yicha ishlarni muvofiklashtirish;

3-bob Bo'limning huquq va majburiyatlari

O'z vakolati doirasida Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq statistik ishlanmalarni tayyorlash muddatlariga amal qilinishini nazorat qilish;

tuman statistika boshqarmalari tomonidan KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi soxasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

tarkibiy tuzilmalarni yuritish masalasi bo'yicha vazirlik va idoralar vakillari bilan birgalikda ishlash;

foydalanuvchilarga belgilangan tartibda KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi va statistik registrlardagi ma'lumotlarni taqdim etish;

Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan boshqarma bo'linmalari bilan yuriqnoma berish bo'yicha yig'ilishlarda qatnashish;

Bo'lim faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha konferensiyalar, seminarlar va yig'ilishlar, shu jumladan xalqaro yig'ilishlar ishida, shuningdek xalqaro loyixalarda ishtirok etish.

8. Bo'lim quyidagilar uchun javobgar:

O'ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish; vakolatiga kiruvchi

taxlilii va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasini qonun xujjatlariga muvofik yuritilishini ta'minlash;

davlat statistikasi prinsiplariga amal qilish, ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiq foydalanilayotgan usullar va metodikalarni doimiy ravishda takomillashtirish;

Bo'lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy xujjatlarga muvofik ijro intizomini ta'minlash.

Bo'limning tuzilmasi o'z ichiga Bo'lim boshlig'ini, bosh mutaxassis, shuningdek yetakchi muxandis-dasturchini oladi.

9. Bo'limga Bo'lim boshlig'i raxbarlik qiladi.

10. Bo'lim boshlig'i va bo'lim mutaxassislari boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod kilinadi.

11. Statistik registrlarni yuritish bo'limi quyidagilarni amalga oshiradi:

statistika maksadlari uchun zarur statistik tasniflagichlar tizimini yuritish va ularga uzgartirishlar kiritishda ishtirok etish ;

statistik tasniflagichlarning elektron kutubxonasini yuritishda ishtirok etish;

xududiy statistika organlari, boshqarma bo'linmalari va manfaatdor foydalanuvchilarga statistik tasniflagichlarni o'zlashtirishda metodik amaliy yordam ko'rsatish;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasining axborot resursida statistik tasniflagichlardan foydalanish borasida KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasini yuritish metodologiyasini takomillashtirish;

statistik axborotlarni yigish va avtomatlashtirilgan kayta ishlash jarayoniga xalkaro standartlarga mos klassifikatsiyalarning standart tizimini bosqichma-bosqich joriy etish ishlarini muvofiqlashtirish va metodik ta'minlash.

5-bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish

12. Bo'lim ishi O'zbekiston Respublikasining "Davlat statistikasi to'g'risida"gi qonuni, Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari dasturi, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida nizom, mazkur Nizom, boshqarma boshlig'ining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek boshqarmaning ish rejalari, Bo'limning ish rejalari va Bo'lim xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo'limning ish rejasi boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan boshqarmaning ish rejalari asosida shakllantiriladi va boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Xodimlarining funksional vazifalari Bo'lim boshlig'i tomonidan bo'limga yuklangan vazifalardan kelib chikkan xolda tayyorlanadi va boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

13. Bo'lim boshligi:

Bo'limga bevosita raxbarlikni amalga oshiradi, o'z mutaxassislarning ishini tashkil qiladi, Bo'limga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mexnat

intizomining xolati uchun shaxsan javob beradi;

Bo'limning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq; lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish va jazolash choralarini bo'yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va raxbariyatga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

Bo'limning ish rejasi loyixasini ishlab chiqadi va boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosariga tasdiqlash uchun kiritadi;

Bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Boshqarmaning yig'ilishlari va majlislarida, shuningdek boshqarma boshlig'ining topshirig'iga binoan Bo'lim tasarrufiga kiruvchi masalalar bo'yicha bo'linmalararo ishchi guruxlar va kengashlar faoliyatida ishtirok etadi;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi sohasida normativ va metodologik xujjatlarni ekspert jixatdan puxta ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

Boshqarma boshlig'i va uning o'rinbosarlarining topshiriqlariga muvofiq taxliliy va umumlashtiruvchi materiallarni tayyorlaydi, qo'yilgan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini ta'minlaydi;

Boshqarmaning va Bo'limning joriy va istiqbol ish rejalariga muvofiq Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha taxliliy va boshqa materiallarni o'z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta'minlaydi;

normativ-huquqiy xujjatlar, rejalar va dasturlar loyixalarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishda, shuningdek ularning davlat statistikasiga tegishli qismini ijro etishda ishtirok etadi;

Bo'lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to'ldirish choralarini ko'radi;

Bo'lim kadrlari zaxirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zaxirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta'minlaydi;

Bo'lim xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi xujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo'riqnoma berish bo'yicha yig'ilishlar o'tkazadi;

ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o'z vaqtida ijro etilishini qat'iy nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat xujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo'yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal kilinishini ta'yinlaydi.

Bo'lim boshlig'i vaqtinchalik bo'lmagan takdirda uning vazifasini Bo'lim bosh mutaxassisi bajaradi

14.Bo'limning bosh mutaxassisi:

Tuman statistika bo'limlari tomonidan Statistik registrlarni yuritish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirishda ishtirok etadi;

funksional vazifalariga muvofik materiallar, takliflar va xujjatlar loyixalarining sifatli, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qarorlari, farmoyishlari va protokol topshiriqlaridan kelib chiqadigan davlat statistika organlari vazifalarini amalga oshirish bo'yicha Boshqarma bo'linmalarining takliflarini birgalikda umumlashtiradi;

amaldagi Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yurtishi bo'yicha qo'llanmani metodologiyasini takomillashtirish, KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi soxasidagi statistik instrumentariyni tayyorlash va tasdiqlash bo'yicha boshqarma bo'linmalari va tuman statistika organlarining takliflarini taxlil qiladi va umumlashtiradi, zarur taxliliiy materiallar va xulosalar tayyorlaydi, shuningdek zarur kelishuvlarni ta'minlaydi;

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, davlat tashkilotlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan (zarur xollarda ularning vakolatxonalari va filiallaridan) xamda Boshqarmaning tarkibiy bo'linmalaridan ishlarni olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni belgilangan tartibda olishda xamda ulardan statistika maqsadlarida foydalanishda ishtirok etadi;

"KTYaDR va STIRYaR da xisobda bo'lgan yuridik shaxslar bo'yicha elektron ko'rinishda idoralararo ma'lumot almashish tartibi" ni ijrosi bo'yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirish va xar chorakda tegishli axborotlar asosida umumlashgan ma'lumot tayyorlaydi;

- KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi soxasi buyicha dinamik qatorlarni yuritish;

- Amaldagi statistika metodologiyasini takomillashtirish, statistik instrumentariyni tayyorlash va tasdiqlash bo'yicha boshqarma bo'limlari taqdim etgan takliflarni umulashtirish, zarur taxliliiy materiallar tayyorlash;

tegishli funksional masalalar bo'yicha KTYaDR (xujjatlar, tasniflagichlar, uslubiy nizomlar va x-k.) tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yuritilishini, ularning doimiy ravishda to'ldirilishini va yangilanishini ta'minlaydi;

ilmiy jurnallar, xalqaro tashkilotlarning metodologik nashrlari Internet tarmogidagi materiallarni o'rganish asosida statistika soxasidagi ilg'or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

funksional vazifalariga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma bo'linmalariga va tuman statistika organlariga maslaxat yordami ko'rsatadi; boshqarma bo'linmalari tomonidan ishlab chiqilgan metodik xujjatlarni, shuningdek markaziy apparat bo'linmalari va tuman statistika organlari tayyorlagan ish rejalari va boshqa materiallarni boshqarmaning buyruqlari, reglamentlari va boshqa qarorlari talablariga, shu jumladan ularni rasmiylashtirish talablariga, mos kelishini ekspertiza qiladi;

tuman statistika organlari faoliyatini kompleks va maqsadli o'rganishlarda ishtirok etadi;

Bo'lim boshlig'ining topshirig'iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi, ularda ko'rsatilgan masalalarni xal qilish bo'yicha loyixani tayyorlaydi;

kasbiy malaka darajasini tizimli ravishda oshirib boradi; jamoaning mexnat faoliyatida faol ishtirok etadi;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasiga oid xujjatlar va yo'riqnomalar bilan ishlash tajribasini muntazam oshirib boradi;

-raxbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi; vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

15 Bo'lim yetakchi muhandis-sistema dasturchisi:

Funksional vazifalariga muvofiq materiallar, statistik axborotlar, byulletenlar, to'plamlar va ma'ruzalar, iqtisodiy yozishmalar uchun ma'lumotlar tayyorlash uchun shaxsan javob beradi;

Yuridik shaxslarni xisobga olish va identifikatsiya qilishni avtomatlashtirilgan axborot tizimi "Reg-System" muntazam ishlashini va undan foydalanuvchilarga tegishli huquqlarni rasmiylashtirishni ta'minlaydi;

Bo'lim tarmoq bo'linmalariga Statistik registrlarni shakllantirish uchun KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasi asosida kataloglar shakllantirish va statistik kuzatuvlar natijasida olingan ma'lumotlarni KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasiga kiritishni ta'minlaydi;

KTYaDR xududiy ma'lumotlar bazasida foydalaniladigan umumdavlat tasniflagichlari va idoraviy statistik ma'lumotnomalarni o'z vaqtida yangilab borish;

- statistik to'plamlar, ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotnomalarni tayyorlash va ishlab chiqishda qatnashish;

- ekspress-ma'lumotlar xamda statistik ko'rsatkichlar tizimini tuzish va taxlil kilishda qatnashish;

funksional vazifalariga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma bo'linmalariga va tuman statistika organlariga maslaxat yordami ko'rsatadi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Statistik registrlarni yuritish bo'limining Nizomi bilan tanishganlar ro'yxati

T/r	Lavozimi	F.I.O	Imzo
1.	Bo'lim boshlig'i	<i>Myerodov Nazarov</i>	<i>[Signature]</i>
2.	Bosh mutaxassisi	<i>Hammyratova Z.A</i>	<i>[Signature]</i>
3.	Yetakchi muxandis-dasturchi	<i>Jynapbek M.U.</i>	<i>[Signature]</i>

Yetakchi muxandis-dasturchi

Xakimov A. E

[Signature]